

BIRNI KO'RIB FIKR QIL, BIRNI KO'RIB SHUKR QIL*Ismoilova Malika Ismoilovna**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Noshukrlik, shukrona qilib yashash haqida shuningdek uning hozirgi hayotimizdagi o'rnini va ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Shukr, noshukrlik, shukr qilish, sabr-qanoat, aql, fahm-farosat, fikr, umr, shukronalik, inson ziynati.

Sulaymon Boqirg'oniy "Hudo bergan ne'matlarga shukr qilgin", deb yozadi. Ogahiyda esa shunday bir mashhur bayt bor:

Kishida lozim erur har na holda shukr,
Xoh kamolda bo'lsin, xoh zavolda shukr.

Aytishim joizki, bu ishtibohlar mazmuni bugun ko'pchilikka yoqmaydi. Chunki, zamonamizning talabi afsuski, bizning hayotimizni ota-bobolarimiz, allomalarimizning hayot haqiqatiga aylangan tushunchalari, hikmatlaridan ozgina uzoqlashtirib qoydi. Aslida, shunday go'zal diyorda yashayotganimiz, bizning tirikligimiz, har tong borliqdan nafas olib, ko'zimizni ochishimiz, erta tongdan oshxona tomondan taralayotgan oyimizning mazali nonushtasi-yu, o'qishga shoshib turganimizda ham shukrona ila o'z duosini bizdan ayamaydigan bobo-buvilarimiz, tinch oilamiz, aka-opamiz bor ekanligi, Oliy ta'lim maskanida o'qib bilim olayotganimiz, ishimiz, uyimiz, mashinamiz va hokazo bularning hamma hammasi shukr qilish, Yaratganga shukrona aytish ortidan...

Aslida ham shunday emasmi?

Shukr qilish bazilar o'ylagandek, "Bersang-yeyman, ursang-o'laman" degani emas. Eng avvalo, shukr qilish, Olloh bergan ne'matlarga sabr-qanoat qilishdir. Shukr qilish degani, senga berilgan inoyatu ne'matlarni o'zinga qabul qila bil, qabul qilish esa Olloh senga aql, til, ko'z va quloq bergan ularni ishlatib, yashab ko'r, insonlarni o'rgan, atrofni kuzat, ulardan o'rnak ol, ko'plab savob ishlarga qo'l ur. Ana undan so'ng senga yana nima kerakligini o'ylab ko'r, Olloh bergan aqling bilan fikr yurit hayotingda tug'ilgan muammolarga yechim top, bu yechimni qanday hal qilishni o'rgan, degani.

Buyuk bobokalonimiz Qaffoli Shoshiy o'zining mashhur "Javomi ul-karim" kitobida keltirgan Payg'ambarimiz (s.a.v) ning "Ne'matlar haqida gapirishlik shukr qilishlikdir" deganlar.

Yaratgan bizlarga ato etgan behisob ne'matlarni yodda tutish, uni o'z vaqtida qadrlay olish o'sha ne'matlarning davomiyligiga sabab bo'ladi. Shayx Sa'diy aytganlar: "Bir nafasga ikki marta shukr aytish vojib", zero, nafas kirsayu qaytib chiqmasa yoki chiqsayu qaytib kirmasa, inson halok bo'lishini ta'kidlab, inson tansihatligi uchun, xotirjamligi uchun Yaratganga shukrona aytmoqligi lozim deganlar. Yaxshilikka faqat yaxshilik bilan javob qaytarish ulug' fazilatlardan hisoblanadi. Taqdir gardishi inson boshi uzra qay tomonga qarab aylanmasin, kishi o'zini munosib tutgan holda chin bandalik yo'li - shukronalikda mustahkam turishi

lozim. Muqaddas islom dinida shukrga buyuk ibodat sifatida qaraladi. Bandalarini hamisha va har qachon shukr qilishga buyurgan Alloh birinchi navbatda o'zini shukr qiluvchi deb atagan: "Kim yaxshilikni xolisona qilsa, bas, albatta, Alloh shukr qiluvchi va biluvchidir" ("Baqara" surasi, 158 oyat).

Aslida noshukrlik ehtiyoj ko'pligidan, nafs kuchliligidan, bilimsizlik, fahm-farosat yetishmovchiligidan paydo bo'ladigan illat. Uning boshqa ildizi yo'q. Noshukrlik nafs degan razil illat bilan bog'liq bo'lgani uchun u atrofimizdagi jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu fikrlarimga isbot sifatida hayotimizdan ayrim misollar keltirmoqchiman.

Hozirgi kunda ko'plab oilalarda ajrimlar soni ko'payib ketgani, bolasining kelajagi, keying hayotini o'ylamayotgani, o'z jajji farishta, dilbandlarini ayrim razil ota-onalar o'z qo'llari bilan ularni bolalar uyiga topshirayotgani, charxpalakning bir pallasidek bu holat ota-onalarga yuzlanayotgani o'z farzandlari qarigan paytlarida ularga mehr e'tibor ko'rsatish o'rniga, ularni qariyalar uyi tomon yetaklashmoqda. Ular bilishmaydiki, qancha qancha oilalar, xonadonlar chaqaloq ovozi-yu, bolalarning sho'x kulgusini yillab kutayotganini, ular bilishmaydiki, har tong ota-onasidan olgan duoni, dunyoning ming bir zariga ba'zi farzandlar alishmas ekanligini.

Hattoki, nogiron, sog'lig'ida muammosi bor, o'lim to'shagiga yotgan bemor ham hayotiga shukrona aytib, nimadir umid ila yashaydi. Shunday ekan, "Birni ko'rib fikr qil, birni ko'rib shukr qil" degan naql bejiz emas. Shukronalik- insonning go'zal ziynatlaridan biridir. Bugungi tinchlik- osoyishtalik, erkin va farovon hayotga shukrona keltirish, uning qadriga yetish hayr- u barokatni yanada ziyoda qiladi.

Ey, aziz insonlar, noshukrlik qilmaylik, boshqalar hayotidan o'zimizga ibrat olib yashaylik. Noshukr insonlar hayotidan doim noliydi va shu bilan bir qatorda u insonlar ko'zga tashlanadigan shaxslar bo'lishadi. Ularni ko'rganimizda o'zimizni ulardan chetga olmaylik, ularga yaxshi yashashda ibrat ko'rsataylik, ularga dashnom berishni o'rganaylik va bundan qochmaylik!

Eng muhimi, har birimiz hayotimizdan, shukr qilishdan to'xtamaylik. Zero, berilgan umr bejizga emas, uni yaxshi yo'lga baxsh etaylik!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sulaymon Boqirg'oniy, Ogahiy ning asarlaridagi mashhur baytlari.
2. Qur'oni Karim (Baqara surasi 158- oyat)
3. Qaffoli Shoshiy " Javomi ul- karim" kitobi
4. Azizaxon Tashxodjayeva "Shukronalik mo'jizalari " asari